

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING MAVZUVIY GURUHLARI VA SEMANTIKASI

Tadjiyeva Umida

Oriental universiteti “Sharq tillari” kafedrası o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Maqollar, matallar, naql va iboralar yillar osha tildan tilga ko‘chib millatning madaniy me‘rosiga aylangan xalq og‘zaki ijodi na‘munalaridir. Ushbu maqollarda xalqning nafaqat tarixi, turmush tarzi, dunyoqarashi balki ularning g‘am-u tashvishlari, orzu o‘ylari ham o‘z aksini topadi. Maqollar xalq dunyoqarashi, ruhiyatini chuqurroq anglashga imkon beruvchi milliy-madaniy birliklardir. Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarining mavzuviy guruhlari, semantikasi hamda strukturasi ko‘rsatib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** maqol, matal, hadislar, non uzvli maqollar, tematik mavzular, “Ma‘nolar mahzani”, etimologiya.*

O‘zbek xalq maqollari tilining fashatlilik, shu bilan birga oddiyligi, soddaligi, ixchamligi bilan ajralib turadi. O‘zbek xalqi azaldan sodda, aytish mumkinki jaydari xalq hisoblanadi. Shuning uchun xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish maqol, matal, so‘z o‘yinlari, qochirimlar tushunarli tilda, ortiqcha bezaklardan holi, lekin mazmun mohiyati chuqurligi bilan e‘tiborni tortadi. O‘zbek xalq maqollarida xalqimizning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo‘llanib kelinmoqda.

O‘zbek maqollari tasnifi masalasi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan mavzu hisoblanadi. Ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari” akademik to‘plamida maqollar alifbo tartibida berilgan. “Alfavitli tasnif” to‘plamda “Balandparvoz so‘zlar” deb qabul qilingan. Tuzuvchilar Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o‘zlarining “Ma‘nolar maxzani” to‘plamida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. To‘plam 20 ming maqolni o‘z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobillari keltirilgan. Boshqa to‘plamlarda, asosan, maqollarning predmetli-mavzuli tasnifidan foydalanilgan. Masalan, “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida 30 predmetli mavzu guruhi taqdim etilgan:

- 1) Vatan va vatanparvarlik haqida;
- 2) mehnat va mehnatsevarlik haqida;
- 3) kollektivizm;

- 4) do‘stlik va kelishmovchilik haqida;
- 5) fan va san’at haqida;
- 6) donolik va johillik haqida;
- 7) mardlik va insoniylik haqida;
- 8) jasorat va qo‘rqoqlik haqida;
- 9) hushyorlik va ehtiyotkorlik haqida;
- 10) oila va yaqinlar haqida;
- 11) sevgi va sadoqat haqida;
- 12) kattalarni e’zoz qilish haqida;
- 13) kamtarinlik va tarbiya haqida;
- 14) qadr-qimmat haqida;
- 15) mehmon va mehmondorchilik haqida;
- 16) yaxshi so‘z va ezgulik haqida;
- 17) rostgo‘ylik va samimiylilik haqida;
- 18) ehtiyotkorlik va uquvsizlik haqida;
- 19) tejamkorlik haqida;
- 20) sabr qanoat, matonat haqida;
- 21) soflik, poklik haqida;
- 22) ishonch va umidsizlik haqida;
- 23) maqtanchoqlik va kibr haqida;
- 24) ochko‘zlik haqida;
- 25) hayvonot haqida;
- 26) nasihat haqida;
- 27) majoziy maqollar;
- 28) pand-nasihat moqollari;
- 29) kambag‘allik va muhtojlik: tarixiy o‘tmish haqidagi maqollar;
- 30) haqsizlikka qarshi yo‘naltirilgan maqollar; 1

“O‘zbek xalq maqollari” [T.Mirzayev, Toshkent, 2005 y.] to‘plamida maqollar 70 tematik mavzuga bo‘lingan: 1) Vatan va vatanparvarlik; 2) Jamoatchilik va xudbinlik; 3) Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik; 4) halollik va tekinxo‘rlik; 5) to‘g‘rilik va egrilik; 6) yaxshilik va yomonlik; 7) yaxshi so‘z va yomon so‘z; 8) adolat, insof va insofsizlik; 9) do‘stlik va dushmanlik 10) tinchlik va notinchlik; 11) botirlik va qo‘rqoqlik; 12) tenglik va tengsizlik; 13) donolik va nodonlik; 14) ilm, kasb-hunar va ilmsizlik; 15) mardlik va nomardlik; 16) tarbiya va odat; 17) odob va odobsizlik; 18) mehmon va mehmondo‘stlik; 19) saxiylik va baxillik; 20) go‘zallik va xunuklik; 21) kamtarlik va manmanlik; 22) baxt, omad va omadsizlik; 23)

¹ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. –B 33..

epchillik va noshudlik; 24) to‘g‘ri so‘z va yolg‘onchilik; 25) sabr-qanoat va sabrsizlik; 26) mehr-oqibat va oqibatsizlik; 27) qadr-qimmat va qadrsizlik; 28) muhabbat va bevafoqlik; 29) oila va qo‘shnichilik; 30) qarindosh-urug‘chilik va begonalik; 31) farzand va befarzandlik; 32) tajribakorlik va kaltabinlik; 33) ta‘magirlik va ochko‘zlik; 34) umid va umidsizlik; 35) ishonch va ishonchsizlik; 36) erk-va erksizlik; 37) barqarorlik va beqarorlik; 38) ahillik va noahillik; 39) or-nomus va nomussizlik; 40) g‘urur va xushomad; 41) samimiylik va nosamimiylik; 42) andisha va andishasizlik; 43) farosat va farosatsizlik; 44) sabab, bahona va natija; 45) samaradorlik va besamarlik; 46) rizq-nasiba va benasiblik; 47) tejamkorlik va isrofgarchilik; 48) naqd va nasiya; 49) ehtiyoj va zaruriyat; 50) reja va rejasizlik; 51) me‘yor va me‘yorsizlik; 52) qudrat va ojizlik; 53) foyda va zarar; 54) mas‘uliyat va mas‘uliyatsizlik; 55) taqdir va tadbir; 56) vaqt va fursat qadri; 57) imkon va imkonsizlik; 58) farovonlik va yetishmovchilik; 59) ehtiyotkorlik va ehtiyotsizlik; 60) mamnunlik va afsuslanish; 61) tozalik, sog‘lik va bemorlik; 62) dehqonchilik va chorvachilik; 63) sevinch va g‘am; 64) to‘y va motam; 65) yoshlik va qarilik; 66) yo‘l va yo‘ldosh; 67) hayvonlar va qushlar; 68) yil fasllari va tabiat hodisalari; 69) faqirlik va boylik; 70) amaldorlar va avom din vakillari.¹

Shuni o‘rinda o‘zbek xalqining o‘ziga hos jihatlaridan bo‘lmish mehmondo‘stlik, yaqinlarga xurmat, nonni e‘zozlash, tuzga munosabat kabi masalalarni ham aytib o‘tish joiz:

Masalan, “Non yemasning ishiga boq!”, “Non pishguncha kulcha kuyadi” kabi bir necha maqollar to‘g‘ri va majoziy, ya‘ni tag ma‘noga ham ega. Chunonchi, “Non pishguncha kulcha kuyadi” maqolini “Katta to‘qoch pishguncha kichik to‘qoch kuyibdi” varianti ham bor. To‘qoch so‘zi kulcha non degan ma‘nonianglatadi. Mazkur paremiya asli “Tandirga yopilgan katta nonga issiq o‘tguncha kulcha qizaradi, non qizarguncha kulcha kuyib ketadi”, degan mazmuni anglatadi. Olimlar bu maqolning majoziy ma‘nosini “... akasi uylanguncha ukasi yoxud opasi erga tekkuncha singlisi shoshib ketadi. Shunday hollarda mazkur maqolniistehzo, hazil-mutoyiba tarzida qo‘llaydilar”, – deb izohlaganlar. Bizningcha, uning majoziy mazmuni kengroq: bunda birlamchi, asosiy ishni bajarguncha ikkinchi bir yumushning kechikishi, qolib ketishiga ishora bor. “Non nonvoyda, kaliti – osmonda”, “Non qo‘ynimda: it keynimda”, “Non qadrini och bilar, kiyim qadrini – yalang‘och” kabi maqol-u matallarda nonni topish qiyin va mushkulligi xalqona qiyoslar bilan ta‘kidlanib, insonni mehnatsevarlikka, halollikka chorlov kuzatiladi: “Non yemoqchi bo‘lsang, o‘tintashishdan erinma!”, “Ter to‘ksang, don to‘kasan, Don to‘ksang, non to‘kasan”, “Hunar bo‘lsa qo‘lingda, non

¹ Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2012. –B.43.

topilar yo‘lingda”, “Hunari yo‘q – non gadoyi”, “Hunarmandning noni butun”, “Mardning noni butun” kabi.

O‘zbek tilida non uzvli maqol va matallarning ko‘pligi boshqa xalqlar qatori o‘zbeklarda ham qadim-qadimdan nonni eng aziz, eng muqaddas, eng ulug‘, eng bebaho ne‘mat sifatida qadrlanishi bilan bog‘liq milliy qadriyatlar natijasidir. Yana shuni ta‘kidlash joizki, xalqimiz juda ko‘p yuksak insoniy hislatlarni ham non uzvli maqollar vositasida ana shunday ulug‘ ne‘matlarga ishora qilish, qiyoslash asnosida uqtiradi.¹

Shuningdek, o‘zbek xalq maqollarida hayvon nomlari asosida yohud diniy marosimlar natijasida yuzaga kelgan maqollar mavjud. Hayvon nomlari doirasida shakllangan o‘zbek xalq maqollari, odatda, hayvonlarning tabiati, fe‘l-atvori, tashqi ko‘rinishi, harakati, tovushi, harakat tarzi, biologik xususiyati asosida yuzaga kelgan. Bu esa og‘zaki ijod mahsuli bo‘lmish maqollarning o‘sha xalq hayoti, turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini yana bir karra isbotlaydi. O‘zbek xalqi turmushi voqeligi hamda kasb-kor doirasida shakllangan maqollarning asosini, odatda, har bir kasb egasi yaratadigan mahsulot, o‘sha kasb doirasida shakllangan maqollarning asosini, odatda har bir kasb egasi yaratadigan mahsulot, o‘sha kasb doirasida kechadigan hayot tarzi bilan bog‘liq voqea-hodisalar tashkil etadi. Masalan, boshqalarning hojatini chiqarish uchun tinmay mehnat qilib, o‘zining yumushini ado etishga esa vaqt topa olmaydigan holatni kosib: “Etikdo‘zning etigi yirtiq”, bo‘zchi: ”Bo‘zchi belboqqa yolchimas”, kulol: ”Kulol mo‘ndida suv ichar” va h. k. tarzida shakllantirgan. Asta-sekinlik bilan bir kasb doirasida paydo bo‘lgan maqol falsafiylikka ega bo‘lib, umumlashma holatlarga nisbatan qo‘llaniladigan bo‘lib qolgan. Diniy tushunchalar doirasida shakllangan maqollarning asosini diniy marosim, diniy atama va diniy shaxs nomlari tashkil etadi.² Uy-ro‘zg‘or tushunchalari doirasida shakllangan maqollar uy-ro‘zg‘or buyumlari va mahsulotlari nomi asosida paydo bo‘lgan. Bir guruh maqollar vaqt nomlari asosida paydo bo‘lgan bo‘lib, bunda vaqtni ifodalovchi kun, hafta, oy, yil, burj, fasl nomlari shakllantiruvchi asos vazifasini bajargan. O‘simlik nomlari asosida shakllangan maqollar mevali daraxtlarda mevasining ta‘mi, foydaliligi, ularni terib, yig‘ib olish bilan bog‘liq mashaqqatli mehnati va hokazolarga; mevasiz daraxtlarda esa ularning tashqi ko‘rinishi, chidamlilik darajasi kabilarga asoslanadi. Umumiy “daraxt” leksemasi asosida shakllangan maqollarda bo‘lsa, daraxtning, asosan, o‘simlik jihatiga diqqat qaratiladi.³

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 3j.– B 57.

² Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. dok.dissertatsiyasi.-B 65

³ Jo‘rayeva B.O‘sha manba’ .-B 65

Hadislar ham maqollarning paydo bo'lishi va taraqqiyotida ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan, aniqrog'i, hadislar jonli so'zlashuv jarayonida qayta ishlanib, yanada ixchamlashib, obrazlilik kasb etgan holda xilma-xil maqollar shaklida faolroq qo'llana boshlagan. Masalan, Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilinadigan «Alloh Taoloning rozi bo'lishi otaning rozi bo'lishiga va uning g'azabi ham otaning g'azabiga bog'liqdir» hadisi mavjud. U xalq ijodida «Ota rozi-xudo rozi, Ota norozi-xudo norozi», «Ota oldida kek urma, odobingga chek urma», «Ota oldidan o'tma, odob oldidan ketma», «Ota o'g'li bo'lsang, ota nomini baland tut» singari o'nlab maqollarning yuzaga kelishiga turtki bo'lgan. ¹

Xulosa qilib aytganda, O'zbek xalq maqollarining mavzuviy guruhlari ham, ularning struktura va semantikasi ham nihoyatda rang-barangdir. Bu o'rinda maqollar ustida olib borilayotgan izlanishlar xalq madaniy merosini yanada boyitish va mustahkamlash uchun hizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirzayev T, Turdimov SH. Uzbek folklore. Tashkent-2020.
2. Rahmatov Y. Proverb and its evolution in Uzbek classic literature. Dissertation submitted for the degree of DSc.
3. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2012.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.
6. Oxunjon Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. «Musiqqa» nashriyoti Toshkent 2010.
7. Jo'rayeva B. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. dok. dissertatsiyasi. -

¹ Oxunjon Safarov O'zbek Xalq Og'Zaki Ijodi. «Musiqqa» nashriyoti Toshkent 2010.- B.284